



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No9(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 376 sahifa,
2-sentyabr, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

O'smirlarda hissiy bezovtalikning psixologik determinantlari sifatida o'z-o'zini baholash va o'ziga munosabat xususiyatlari.....	10
Ibraymova Altinay Esemuratovna	
Bo'lajak pedagoglar shaxsiyatida ksenofobiya xavfi: kasbiy deformatsiya omillari va uning pedagogik faoliyatga ta'siri	16
Abdiraximova Dildora Begimkulovna	
Biologiya ta'limida sun'iy intellektdan foydalanish: didaktik imkoniyatlar, muammolar va metodik yechimlar.....	20
Raxmatov Uchkun Ergashevich	
Talabalarda mediasavodxonlik va tanqidiy fikrlash o'rtasidagi psixologik bog'liqlik.....	28
Adizova Muxabbat Muxitdinovna	
Oliy ta'lim rahbar-kadrlarida stressogen vaziyatlarni boshqarishning pedagogik-psixologik o'ziga xos jihatlari	32
Sultonov Mansur G'aniyevich	
Boshlang'ich ta'limda individual yondashuv orqali o'quvchilarning ta'lim natijalarini yaxshilash	37
Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Bo'tayeva Saodat Xudoyor qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarning raqamli resurs bazasini yaratish kompetensiyasi: tuzilma va mezonlar.....	41
Qo'qonboyeva Durdona Faxriddin qizi	
Biologiyani o'qitishda zamonaviy ta'lim metodlari.....	44
Joldasbayeva Gulchexra Maksetbayevna	
Organik fotoelementlarning moslashuvchanligini oshirish.....	49
Jalolova Pokiza Muzaffarovna	
Dzyudo sport turida texnik tayyorgarlikni takomillashtirishda maxsus mashqlardan foydalanish samaradorligi.....	54
Ko'palov Sanjar Ulug'bekovich	
Interactive Methods for Developing Sociolinguistic Competence in Higher Education	59
Baxramova Diyora Sanjar qizi	
Texnika yo'nalishi talabalarini ishlab chiqarish muhitiga tayyorlashda CDIO va sanoat korxonalari hamkorligining pedagogik imkoniyatlari	66
Gaffarov Xasan Ravshanovich	
Onkologik bemorlarga tashxisni bildirish madaniyati va uning psixologik oqibatlar (O'zbekiston misolida)...	70
Jonpo'lotova Manzura Jahonovna	
Malaka oshirish jarayonida rahbar-kadrlarning SOFT-kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligi.....	75
Axrrova Umida Xamidullayevna	
Refleksiv ta'lim muhitida o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini rivojlantirishning didaktik parametrlari tizimi	81
Sadikova Shaxnoza Ulug'bek qizi	
Loyihaviy faoliyat asosida talabalarda mustaqil ta'lim kompetensiyalarini shakllantirish mexanizmlari	87
Jabborov Toxirjon Maqsudali o'g'li	
Biologiya fanini o'qitishda biologiya (maxsus pedagogika: logopediya) yo'nalishi talabalarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	91
Hakimova Musharraf Fozilovna, Hasanova Zebo Davlatovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda bolalar adabiyotining didaktik imkoniyatlari	96
Homiyatova Mavluda Amon qizi	
Boshlang'ich sinflarda raqamli ta'lim muhitini yaratish va interaktiv metodlardan foydalanish.....	101
Karimova Nargiza Raximovna	
Maktabgacha ta'limda raqamli texnologiyalar asosida bolalarning soft skillsini rivojlantirish: interaktiv va sun'iy intellektga asoslangan yondashuvlar	109
Mamatqulova Nozimaxon Shavkat qizi	



Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida innovatsion pedagogik faoliyat ko'nikmalarini rivojlantirish: kvazi-eksperimental tadqiqot.....	116
Nozimabonu Tojiboyeva	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining axborotni tekshirish va dalillarga asoslangan xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	124
Abduraxmonova Gulandam Anvarjonovna	
Funksional yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini takomillashtirishning ustuvor jihatlarini.....	130
Safarov Dilmurod Zoirovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv faoliyati samaradorligini oshirishda o'qish savodxonligining ahamiyati	135
Turg'unboyev Sirojiddin Faxriddinovich	
Sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish asosida matematika fanini o'qitishda o'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish metodikasi.....	140
Sultonova Shahnoza Yusuf qizi	
Boshlang'ich sinflarda ingliz tili o'qitish metodikasini yosh omili asosida takomillashtirish.....	147
Akhmadaliyeva Nargizakhon Abdumalik qizi	
Tengdoshlar bilan munosabat sifatiga oilaviy muhitning bilvosita ta'siri	153
Baratullayeva Dilnoza Xabibullo qizi	
Bolalar kiyimlari va ular bilan bog'liq urf-odatlar (Buxoro vohasi misolida).....	156
G'iyosova Zarina Yusuf qizi	
Bo'lajak biologiya o'qituvchilarining kasbiy-metodik kompetentligi rivojlanganlik darajalarini kvalimetrik shkala asosida baholash	160
Niyozova Shahlo Abdusaitovna	
Bionika asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda ixtirochilik qobiliyatlarini rivojlantirishning samarali metodlari	167
Jumaboyeva Maxliyo Rashidbek qizi	
Talabalarning bilish faolligini oshirishning pedagogik mexanizmlari.....	172
Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi	
Kredit-modul ta'lim tizimida talabalar mustaqil ta'limini neyropedagogik yondashuv asosida tashkil etishning pedagogik-didaktik tamoyillari.....	178
Farrux O'. Ibragimov	
Kichik maktab yoshdagi bolalarning o'quv faoliyatiga moslashishining pedagogik-psixologik xususiyatlari	185
G'ofurova Madina Ikromjon qizi	
Rashk muammosining ijtimoiy-psixologik mazmun-mohiyati.....	189
Ummatova Sitora Shavkatulloyevna	
Bo'lajak o'qituvchilarda axborotni tanqidiy tahlil qilish ko'nikmasini rivojlantirishning ilmiy-nazariy aspektlari	196
Salayeva Sitora Serali qizi	
Nabi Jaloliddin ijodida tarixiy tafakkur va zamonaviylik uyg'unligi	201
Matchanova Mastura Baxrom qizi	
Geometriyani o'qitishda interaktiv metodlardan foydalanish	205
Sultonova Dilrabo Yusuf qizi	
ESP ta'limida syllabus design va uning arxitektura-qurilish yo'nalishlaridagi ahamiyati.....	210
Xayitova Dilnoza Bahtiyorovna	
Цифровизация и глобализация как факторы трансформации французского языка в XXI веке	214
Давронова Зульфия Бобоевна	
Key Highlights of a Dialect for Extraordinary Purposes.....	219
Berdiyeva Mekhriniso Kholmammatovna	
Transformatsion liderning maktabgacha ta'lim tizimidagi strategik va pedagogik ahamiyati.....	223
Mustafoev Maqsudbek Olim o'g'li	

Milliy komponentlarga asoslangan tasviriy san'at ta'limining asosiy metodik tamoyillari.....	227
Baltayeva Xalima Toraboyevna	
Arxitektura ta'limida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning kompetensiyaviy modeli	231
Abduvosiqova Dilafruz Djalaliddinova	
Bo'lajak tarix o'qituvchisi pedagogik-psixologik tayyorgarligining nazariy-konseptual modeli	236
Toshpo'latova Shaxnoza Shuhratovna	
The Impact of the Flipped Classroom Model in Uzbek Secondary Schools: Participation and Engagement	240
Khamidova Shabnam Gulakhmadovna	
Sharq va G'arb pedagogik an'analarida sun'iy intellekt vositasida tarbiya jarayonini transformatsiyalash: qiyosiy tahlil va metodologik yondashuvlar.....	244
Jamolova (G'anijonova) Mushtariybegim Bobirjon qizi	
Sport tayyorgarligi tizimida trenerlar faoliyatining mazmuni, tuzilishi va zamonaviy talablari	249
Ismailova Dildora Qudratullayevna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni son sanoqqa o'rgatishda didaktik vizual vositalarning turlari va ularning pedagogik ahamiyati.....	255
Kushakova Gulnora Egamqulovna, Valiyeva Sabina Shavkat qizi	
Bo'lajak tarbiyachilarning kognitiv-integrativ mobilligi, mohiyati va tarkibiy komponentlari.....	262
Mirzayeva Kamola Ikrom qizi	
Kursantlarda kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirishda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning psixologik-pedagogik ahamiyati.....	267
Shermatova Nazokat Safarovna	
PISA topshiriqlari asosida 5-sinf o'quvchilarining ilmiy tadqiqotlarni loyihalash kompetentsiyasini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari.....	271
Zulayxo Mamajanova	
Лингводидактические основы развития письменной речи студентов на материале жанра травелога	275
Тахирова Маъсуда Абдужаббор кизи, Хазраткулова Мохира Азизбековна	
Migrant oilalarning bola psixikasiga ta'siri	280
Baxtiyor Odilovich Saidov	
Трансформация рекламного дискурса в социальных сетях.....	284
Икрамова Мунира Маруфжановна	
Bo'lajak biologiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini oshirishda web-platformalardan foydalanish modeli.....	289
Akramova Mohinabonu Mirg'olib qizi	
Teaching Translation Equivalence Through Comparative Analysis of Simultaneous and Written Translation: An Experimental Study in Uzbek-English Translation Education.....	294
Iskandarova Risolat Ravshanbekovna	
Oliy ta'limda falsafa fanini o'qitishning ahamiyati va dolzarbligi	299
Ismadiyrov Komil Maxamadiyrovich	
Anorganik kimyoda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan pedagogik tajriba-sinov ishlarining matematik-statistik tahlil natijalari.....	304
Boboyarova Nilufar Saydullayevna	
Maktabgacha yoshdagi duduqlanuvchi bolalar nutq nuqsonlarini qo'g'irchoq teatri asosida bartaraf etish texnologiyalarini takomillashtirish	310
Xasanbayeva Gulbahor Nasrullayevna, Arslanova Madina Mansurovna	
Musiqqa o'qituvchilarida cholg'u ijrochilik ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish (fortepiano asarlari misolida)	313
Rahimberganova Zuhra Shuxrat qizi	
Yosh xodimlarni kasbga moslashtirishda zamonaviy pedagogik metodlarning o'rni va ahamiyati	317
Adilov Baxadir Tanatarovich	



Bo'lajak o'qituvchilarni millatlararo muloqot madaniyatini rivojlantirishga tayyorlashning diagnostik mezonlari va ko'rsatkichlari	321
Atamuratov Dilshod	
Концептуальные основы развития навыков академического вокального исполнительства у студентов образовательных программ по направлению "Музыкальное образование"	325
Ахмедова Чарос Ильхомовна	
Muammoli ta'lim orqali o'quvchilarning kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari	332
Bekchanova Sabohat Matrasulovna	
Ixtisoslashtirilgan va ijod maktablari direktorlari kreativ salohiyatining tarkibiy tuzilmasi va baholash mezonlari	338
G'aniyeva Zarina Itolmas qizi	
Maktabgacha ta'limda inkluziv muhitni shakllantirish: mavjud muammolar va innovatsion pedagogik yechimlar	342
Gulyamova Aziza Otabek qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy madaniyatshunoslik kompetensiyasini shakllantirish metodikasi	346
Komiljonova Mohinur Allabergan qizi	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida talabalarning global kommunikativ motivatsiyasini shakllantirish: pedagogik yondashuvlar	350
Qoravoyeva Shoir Zafarjon qizi	
Tafakkur muammosining pedagogik va psixologik asoslari	353
Shixova Inobat Omonovna	
Integral yondashuv asosida bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy tayyorlashda xorij tajribasi	358
Usmanova Shaxnoza Baxodirovna	
Arab tilidagi akademik matnlarni o'qib tushinishda sun'iy intellektdan foydalanishning metodik imkoniyatlari	363
Xalilova Hilola Sharopovna	
Pedagogika ta'lim yo'nalishi talabalarida deontologik kompetentlikning mazmuni, tarkibiy komponentlari va funksiyalari	368
Yaqubova Donoxon Xo'janazar qizi	
Kognitiv yondashuv asosida sonning butun va kasr qismi qatnashgan tenglamalarni o'qitish metodikasi ...	372
Boboqulova Munisa Shavkat qizi	



OLIV TA'LIMDA FALSAFA FANINI O'QITISHNING AHAMIYATI VA DOLZARBLIGI

Ismadiyrov Komil Maxamadiyrovich

Andijon davlat pedagogika instituti,
Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquqiy tarbiya kafedrası
katta o'qituvchisi, PhD

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'lim tizimida falsafa fanini o'qitishning ahamiyati, bugungi globallashuv sharoitidagi dolzarbligi tahlil qilinadi. Globallashuv va tezkor axborot almashinuvi davrida talabalarda tanqidiy tafakkur, mustaqil fikrlash hamda yuksak axloqiy fazilatlarni shakllantirishda falsafiy bilimlarning o'rni yoritilgan. Maqolada falsafa fanining barcha ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun zarurligi, uning kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishdagi o'rni, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, O'zbekiston oliy ta'lim tizimidagi islohotlar doirasida falsafa fanini o'qitishning zamonaviy metodlari, muammolari va ularni hal etish yo'llari bo'yicha ilmiy-amaliy xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: falsafa, oliy ta'lim, dunyoqarash, tanqidiy fikrlash, globallashuv, ma'naviyat, qadriyatlar, intellektual salohiyat, axloq, ta'lim innovatsiyalari.

Abstract: This article analyzes the importance of teaching philosophy in the higher education system and its relevance in the context of contemporary globalization. It highlights the role of philosophical knowledge in developing students' critical thinking, independent reasoning, and high moral qualities in an era of globalization and rapid information exchange. The article discusses the necessity of teaching philosophy to students across all fields of education, its role in developing professional competencies, and the possibilities of teaching it through modern pedagogical technologies. In addition, within the framework of reforms in Uzbekistan's higher education system, scientific and practical conclusions are presented regarding modern methods of teaching philosophy, existing problems, and ways of addressing them.

Key words: philosophy, higher education, worldview, critical thinking, globalization, spirituality, values, intellectual potential, morality, educational innovations.

Аннотация: В данной статье анализируются значение преподавания философии в системе высшего образования и его актуальность в условиях современной глобализации. Освещается роль философских знаний в формировании у студентов критического мышления, самостоятельности суждений и высоких нравственных качеств в эпоху глобализации и быстрого обмена информацией. В статье раскрывается необходимость преподавания философии студентам всех образовательных направлений, её роль в развитии профессиональных компетенций, а также возможности обучения на основе современных педагогических технологий. Кроме того, в рамках реформ системы высшего образования Узбекистана представлены научно-практические выводы о современных методах преподавания философии, существующих проблемах и путях их решения.

Ключевые слова: философия, высшее образование, мировоззрение, критическое мышление, глобализация, духовность, ценности, интеллектуальный потенциал, нравственность, образовательные инновации.

KIRISH

Zamonaviy taraqqiyot bosqichida oliy ta'limning asosiy maqsadi faqatgina o'z sohasining yetuk mutaxassislarini tayyorlash emas, balki keng dunyoqarashga ega, jamiyatdagi jarayonlarni to'g'ri tahlil qila oladigan, yuksak ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga ega bo'lgan komil insonni tarbiyalashdan iboratdir. Ushbu murakkab va mas'uliyatli vazifani amalga oshirishda gumanitar fanlar, xususan, falsafa fanining o'rni beqiyosdir.

Falsafa insoniyatning eng qadimiy bilish shakllaridan biri bo'lib, u tabiat, jamiyat va inson tafakkuri taraqqiyotining eng umumiy qonuniyatlarini o'rganadi. Oliy o'quv yurtlarida qaysi mutaxassislik bo'lishidan qat'i nazar (xoh u texnika, xoh tibbiyot, xoh iqtisodiyot bo'lsin), falsafa fanining o'qitilishi bo'lajak kadrlarning intellektual salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Bugungi globallashuv, axborot texnologiyalarining mislsiz rivojlanishi va turli mafkuraviy tahdidlar davrida yoshlarda "axborot immuniteti"ni shakllantirish bevosita ularning falsafiy mushohada yuritish qobiliyatiga bog'liq.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Falsafaning ta'limdagi o'rni va uning inson kamolotidagi ahamiyati antik davr mutafakkirlari Sokrat, Platon, Aristoteldan tortib, Sharq uyg'onish davri allomalari Forobiy, Ibn Sino, Beruniylar tomonidan chuqur o'rganilgan. Abu Nasr Forobiy o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida jamiyat taraqqiyoti va insonlar baxt-saodati bevosita ularning tafakkur darajasi va axloqiy fazilatlariga (ya'ni falsafiy komilligiga) bog'liqligini ta'kidlagan.

Zamonaviy xorijiy va mahalliy olimlar (jumladan, J. Dyui, M. Lipman, shuningdek, o'zbek faylasuflari Q. Nazarov, E. Yusupov, V. Qo'chqorov va boshqalar) asarlarida falsafani o'qitish metodikasi, uning yoshlar dunyoqarashini shakllantirishdagi funksiyalari tadqiq qilingan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolani yozishda tizimli tahlil, qiyosiy-tarixiy yondashuv, sintez, deduksiya va induksiya kabi ilmiy bilish metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, bugungi kun pedagogikasida falsafani o'qitishning zamonaviy yondashuvlari kuzatish va umimlashtirish orqali tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Globallashuv jarayonlarining mazmun-mohiyati, asosiy yo'nalishlarini belgilash XX-XXI asrlardagi eng yangi falsafaning asosiy bahs mavzusiga aylandi. Globallashuv jarayonlari bugungi kunda butun hayotimizni qamrab oldiki, uning ijobiy va salbiy xususiyatlarini anglab yetish falsafiy tafakkurni talab etadi. "Falsafaga kuchli ehtiyoj vujudga kelishining bir qator sabablari bor. Jahondagi barcha mamlakatlar hayotining barcha jabhalarini qamrab olayotgan globallashuv va integrallashuv jarayoni bu sabablar orasida birinchisi va asosiy-sidir. Zero, globallashuv sharoitida keng falsafiy mushohadasiz turli mamlakatlar orasida dialoglar olib borish, ular orasida vujudga keladigan konfliktlarni yechish yo'llarini izlab topish mumkin emas"¹.

Falsafiy tafakkurning shakllanishi va rivojlanishi ilmiy-pedagogik jarayon hisoblanadi. Falsafa inson tafakkurida tanqidiy-tahliliy baholash ko'nikmasini shakllantirishga xizmat qilib, insoniyatning tarixiy taraqqiyotida erishgan yutuq va natijalarini rad etmaydi, balki uni yana ham sayqallaydi, ijobiydan salbiyga farqlaydi. Chunki falsafaning muhim xususiyati shundaki, falsafiy tafakkur tadrijiy jarayon bo'lib, tanqidiy va tahliliy yondashuv asosida shakllanadi.

Globallashuv insoniyat hayotining barcha sohalariga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Axborot va texnologiyalar rivoji turli mamlakatlar, xalqlar va madaniyatlar o'rtasidagi aloqalarni kuchaytirdi. Shu bilan birga, globallashuv yangi muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Axborotning haddan tashqari ko'pligi, yolg'on xabarlar, manipulyativ g'oyalar, ommaviy madaniyatning salbiy ko'rinishlari, ekologik muammolar va ijtimoiy tengsizlik shular jumlasidandir.

Zamonaviy texnologiyalar, xususan, sun'iy intellektning rivojlanishi ham falsafiy savollarni kun tartibiga olib chiqmoqda.

1. Sun'iy intellekt inson mehnatini qay darajada almashtirishi mumkin?
2. Mashina qaror qabul qilganida javobgarlik kimning zimmasida bo'ladi?
3. Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va texnologik taraqqiyot o'rtasidagi muvozanat qanday ta'minlanadi?

Ushbu savollarni faqat texnik nuqtayi nazardan hal etib bo'lmaydi. Ular axloq, huquq, inson erkinligi va mas'uliyati bilan chambarchas bog'liq.

Ekologik muammolar ham falsafiy yondashuvni talab qiladi. Tabiatga faqat resurs sifatida munosabatda bo'lish insoniyat uchun jiddiy xavflarni keltirib chiqarmoqda. Falsafa inson va tabiat o'rtasidagi munosabatni qayta ko'rib chiqishga, ekologik mas'uliyatni anglashga yordam beradi. Oliy ta'limda ekologik falsafa, barqaror rivojlanish va avlodlar oldidagi mas'uliyat masalalarini o'rganish talabalarda tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish madaniyatini shakllantiradi.

Falsafa inson va jamiyat hayotida muhim o'rin tutib, ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lgan falsafiy ongning shakllanishida yuksak ahamiyat kasb etadi. Insoniyat taraqqiyotining barcha davrlarida falsafaning tub mohiyatini anglash, falsafiy ta'limotlar va qarashlardan foydalanish falsafiy tafakkurni yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Buyuk faylasuflarning ta'limotlari insoniyat madaniy taraqqiyotida, shaxs ma'naviy kamolotida, jamiyatning tub o'zgarishlarida dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan.

Shuningdek, insoniyat tarixiy taraqqiyoti davomida turli ijtimoiy silsilalarni boshidan kechirgan, jamiyat taraqqiyoti doimiy birdek kechmagan. Jamiyat iqtisodiy va siyosiy, ijtimoiy va axloqiy, moddiy va ma'naviy tanazzulga yuz tutgan davrlarda falsafiy ta'limotlarga ehtiyoj sezilgan. Falsafa jamiyatda yuz beradigan bunday

1 Muxtarov U.M. Falsafiy ta'lim tizimini rivojlanish evolyusiyasining ayrim jihatlari. Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies, 2022, № 1 (61). – B-17.



murakkab vaziyatlarda ham kishilarda falsafiy tafakkurni shakllantirish orqali kelajakka ishonch ruhini tarbiyalay olgan. Global muammolarni yechishga qodir, yuksak g'oyaviy e'tiqodga ega, umuminsoniy manfaatlarni o'zining shaxsiy manfaatlaridan ustun qo'ya oladigan komil insonlarni tarbiya qilishga xizmat qilgan.

Insoniyat taraqqiyotida muhim o'rin egallagan fundamental fanlar taraqqiyotida yuz bergan o'zgarishlar falsafa faniga bo'lgan ehtiyojni keltirib chiqargan omillardan biridir. Falsafa fanining ahamiyati shu bilan izohlanadiki, fundamental fanlarda amalga oshirilayotgan tadqiqotlar bugungi kunda falsafadan mustaqil tarzda olib borilmayapti. Nisbiylik nazariyasi, kvant fizikasi, neyrofiziologiya kabi sohalarida amalga oshirilayotgan tadqiqotlarda ular duch kelayotgan muammolarni falsafiy mushohada bilan yechishni taqozo etmoqda.

Falsafaning ta'lim va jamiyatdagi o'рни haqida gap ketganda, prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ushbu fikrlari diqqatga sazovordir: "Dunyo shiddat bilan o'zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga raxna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo'layotgan bugungi kunda ma'naviyat va ma'rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e'tibor qaratish har qachongidan muhimdir"². Chunki falsafa insoniyat tarixida muhim o'rin tutib, jamiyat a'zolari hayotida axloqiy mezonlarni o'rnatib, taraqqiyotga yetaklovchi fan sifatida ijobiy ahamiyat kasb etgan.

Falsafa fani talaba yoshlarning falsafiy tafakkurini, ularda jamiyatda yuz berayotgan o'zgarishlar va voqeliklarga daxldorlik hissini shakllantiradi. Bugungi kunda ta'lim tizimimizda ham falsafa fanining ahamiyati yuksalib, oliy o'quv yurtlarida falsafani o'qitishni yanada rivojlantirish borasida mutaxassislik yo'nalishlaridan kelib chiqib, falsafa darslari o'qitilmoqda. Masalan, pedagogika yo'nalishidagi talabalarga "Globallashuv va ta'lim", tibbiyot yo'nalishidagi talabalarga "Falsafiy antropologiya (Inson falsafasi)" fani, psixologiya yo'nalishidagi talabalarga "Shaxs falsafasi" kabi fanlar o'qitilmoqda.

Shuningdek, falsafani o'qitish bo'yicha milliy tajribalar shakllantirilishi davom ettirilib, O'zbekiston Islom Akademiyasida "Din falsafasi", texnika yo'nalishida "Texnika falsafasi", Iqtisodiyot universitetida talabalarga "Globallashuv va liderlik", tarix yo'nalishidagi talabalarga "Tarix falsafasi", Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi talabalariga "G'oyalar falsafasi" kabi fanlar o'tilishi tajribasi olib borilmoqda. Shu orqali "Falsafa - fanlar otasi" degan ibora hayotiy tasdig'ini topmoqda.

Falsafa dunyoqarash bo'lib, falsafa talaba yoshlarning dunyoqarashini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi va quyidagi bir qator e'tiborga molik jihatlarga to'xtalishni taqozo etadi:

- eng avvalo, yoshlarda falsafiy bilimlar vositasida falsafiy dunyoqarash shakllanishi natijasida olam va odam munosabatlariga, tabiat va jamiyat voqeliklariga ongli munosabat shakllanadi;
- falsafiy bilimlar orqali yoshlarda falsafiy tafakkurni shakllanishi ularda protsessuallik va analitik yondashuv ko'nikmasi shakllanadi hamda har qanday muammoli vaziyatdan chiqar olish va o'zini boshqara olish qobiliyati rivojlanadi;
- shuningdek, falsafaning fan tarmoqlari yoshlarda bir qator ijobiy xususiyatlar yuksalishida - etika fani orqali axloqiy sifatlar, estetika fani orqali nafosat, go'zallik, nafislik kabi tushunchalarning mohiyati, jamiyat va uning taraqqiyoti, inson va uning ijtimoiy rivojlanishi qonuniyatlarini tushunishda, mustaqil dunyoqarashni rivojlanishida falsafa fani muhim ahamiyat kasb etadi;
- yoshlar tafakkurida umuminsoniy qadriyatlar shakllanishi hamda ularga sodiqlik ruhi yuksalishida falsafa fanining o'рни beqiyosdir.

"Bundan tashqari, falsafaning quyidagi vazifalari ham mavjud bo'lib, u nafaqat yoshlar, balki butun kishilik jamiyatiga ham taalluqlidir: u kishilarda olam haqida bir butun dunyoqarashni shakllantirishga qaratilgandir. Falsafa metodologik vazifani ham ado etadi, u barcha fan vakillarini ilmiy bilishning asosiy shakllari, usullari va tamoyillari bilan qurollantiradi. Shuningdek, falsafa gnoseologik, aksiologik, gumanistik tarbiyaviy vazifalarni bajaradi. Shu bilan birga, u shaxsda jamiyat, insoniyat oldidagi ijtimoiy mas'uliyat hissini uyg'otadi.

Falsafaning aynan mana shu vazifasi, bosh g'oya sifatida maydonga chiqayotgan O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari degan ulug' maqsadga yetishimizda katta xizmat ko'rsatadi. Chunki xalq farovonligi, yurt tinchligi, vatan taraqqiyoti yo'lida ildam harakat qilishi kerak bo'lgan har bir komil insonning tarbiyasida aynan ijtimoiy mas'uliyat hissi jamiyat taraqqiyotini mustahkamlashda, uning rivojlanish qonuniyatlarini to'g'ri belgilab olishimizda dasturulamal bo'lib xizmat qiladi"³.

Falsafa dunyoqarash sifatida inson ma'naviyatini yuksaltirishga xizmat qilib, uni har tomonlama kamolga yetaklovchi fandır. Falsafa olam va odam munosabatlarini, inson hayoti haqidagi qarashlarni boricha emas, tanqidiy nuqtayi nazar asosida qanday bo'lishi kerakligini tahlil qiladi. Doimo falsafa inson hayotini ma'noga to'ldirishga hissa qo'shib kelgan. Falsafa falsafiy kategoriyalarga tanqidiy va tahliliy yondashib, inson, jamiyat,

² Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz. 1-tom. T.: "O'zbekiston", 2017. - 27-b.

³ Мухтаров У. Ўзбекистонда фалсафий таълимни ривожлантиришнинг илмий-концептуал хусусиятлари. Фалсафа фанлари доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. –Т.: 2020. - 136 б.



xalq, davlat uchun muhim ta'limotlarni ilgari surgan, insoniyat baxt-u kamolini ro'yobga chiqishiga xizmat qilgan. Shuning uchun ham qadimgi yunon faylasufi Aflotun "falsafa, ya'ni aql-zakovat, donolik, siyosiy hokimiyat, davlat boshqaruvi bilan uyg'unlashmaguncha, insoniyat baxtli bo'lmaydi", deb bejizga aytmagan.

Shu o'rinda bugungi yuksak rivojlangan texnologik va axborot asrida bizga falsafa kerakmi, degan savol tug'ilishi tabiiy. Jamiyat, fan-texnika qanchalik jadallik bilan rivojlanmasin, insoniyat oldida yangi va yangi, avval hech kim hech qachon yuz tutmagan muammolarni keltirib chiqaradi. Bunday muammolarga esa falsafiy tafakkur va analitik qarash bilan yechim izlanadi. Fan va texnologiyalarda yuz berayotgan rivojlanishlar, jadal-lashib borayotgan globallashuv jarayonlari insoniyat oldiga global muammolarni keltirib chiqarmoqda, bu muammolar esa insoniyatning o'z kelajagini tahdid ostida qoldirmoqda.

Bugungi muammolar texnogen, axloqiy, ijtimoiy, siyosiy, tabiat bilan bog'liq ulkan muammolar bo'lib, barkamol insonni tarbiyalash, inson va tabiat munosabatlarini muqobillashtirish yo'llarini izlashda falsafiy ta'limotlarga murojaat qilishning zaruratini keltirib chiqarmoqda. Ushbu muammolarni bartaraf etishda falsafa-niing hayot va ta'limdagi o'rnini anglab yetish kun tartibiga chiqmoqda.

Falsafa har doim ham olam va odam borlig'ining eng muhim muammolarini tadqiq etishni maqsad qilib qo'yadi. Shuning uchun ham bugungi globallashuv jarayonlarida ham odam va olam borlig'i falsafaning bosh bahs mavzusi sifatidagi, falsafaning predmeti va muhokamalari markazida esa barkamol insonni tarbiyalash ahamiyati hech qachon pasaymaydi.

Yechim va takliflar:

Falsafa fanini oliy ta'limda o'qitish jarayonida ayrim muammolar ham mavjud. Ba'zi hollarda talabalar falsafa-fani hayotdan uzoq, mavhum va faqat nazariy fan sifatida qabul qiladilar. Bunga darslarda amaliy misollarning kamligi, tarixiy ta'limotlarning faqat ma'lumot shaklida bayon qilinishi yoki talabaniing faol fikrlashiga yetarli sharoit yaratilmasligi sabab bo'lishi mumkin. Falsafa darslarini qiziqarli va samarali tashkil etish uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish zarur:

1. **Muammoli ta'lim:** Darslarni savol-javob, bahs-munozara asosida qurish. Falsafiy mavzularni zamonaviy hayotiy muammolar bilan bog'lash. Talabaga tayyor xulosani bermasdan, uni o'zi haqiqatga yetib borishiga zamin yaratish.
2. **Keys-stadi (Case-study) metodi:** Munozara, keys, loyiha va esse kabi faol metodlardan foydalanish. Falsafiy qonuniyatlarni va axloqiy dilemmalarni aniq hayotiy vaziyatlar (masalan, biznesdagi axloqiy qaror-lar) asosida tahlil qilish. Zamonaviy axloqiy va ijtimoiy masalalarni darslarga kiritish.
3. **Esse yozish madaniyatini rivojlantirish:** G'arb universitetlari tajribasidan kelib chiqib, test tizimidan ko'ra ko'proq analitik esselar yozdirish tizimiga o'tish. Har bir mashg'ulotda talabaniing mustaqil fikrini rag'batlan-tirish. Bu talabaniing fikrini qog'ozga mantiqiy tushira olish ko'nikmasini shakllantiradi.
4. **Fanlararo integratsiya:** Falsafani talabaniing mutaxassisligi bilan bog'lab o'qitish. Fanlararo aloqalarni kuchaytirish. Shuningdek, milliy falsafiy merosdan samarali foydalanish.

Shuningdek, falsafa fani mazmunini barcha ta'lim yo'nalishlari uchun bir xil shaklda emas, balki kasbiy yo'nalish xususiyatlaridan kelib chiqqan holda moslashtirish muhim. Masalan, texnika yo'nalishlarida fan falsa-fasi va texnologiya etikasi, iqtisod yo'nalishlarida iqtisodiy falsafa va ijtimoiy adolat, pedagogika yo'nalishlarida ta'lim falsafasi, tibbiyotda bioetika masalalariga kengroq o'rin berish mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kelajak mutaxassisi nafaqat o'z kasbining ustasi, balki insonparvar, yuksak ma'naviyatli, tanqidiy fikrlay-digan va global o'zgarishlarga moslasha oladigan shaxs bo'lishi kerak. Bu maqsadga esa ta'lim tizimida falsafiy fanlarni zamonaviy, interaktiv va amaliyotga bog'langan holda o'qitish orqaligina erishish mumkin. Oliy ta'limda falsafa fanini o'qitish bugungi kunda nihoyatda muhim va dolzarb vazifalardan biridir. Falsafa insonning borliq va jamiyatdagi o'rnini anglashiga, mustaqil va tanqidiy fikrlashiga, axloqiy mas'uliyatni his qilishiga hamda turli g'oyaviy ta'sirlarga nisbatan ongli munosabatda bo'lishiga yordam beradi.

Globallashuv, raqamlashtirish va texnologik taraqqiyot sharoitida falsafiy tafakkurga bo'lgan ehtiyoj yanada ortmoqda. Chunki zamonaviy inson faqat bilimli emas, balki axborotni tahlil qila oladigan, mas'uliyatli qaror qabul qiladigan, inson qadr-qimmatini hurmat qiladigan va kelajak oldidagi burchini anglaydigan shaxs bo'lishi kerak.

Shu sababli oliy ta'lim muassasalarida falsafa fanini o'qitish mazmuni va metodikasini muntazam takomil-lashtirish, uni zamonaviy ijtimoiy, axloqiy va ilmiy muammolar bilan bog'lash zarur. Falsafa ta'limi milliy ma'naviy meros va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligiga asoslangan holda tashkil etilgandagina o'zining tarbiyaviy va ilmiy salohiyatini to'liq namoyon qila oladi.



Falsafani o'qitish - bu faqat faylasuflar ta'limotlarini o'rgatish emas, balki insonni fikrlashga, anglashga, savol berishga va mas'uliyatli yashashga o'rgatishdir. Demak, falsafa oliy ta'limning ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, barkamol, bilimli va ma'naviy yetuk mutaxassislarni tayyorlashda muhim vosita bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xaitov L. Falsafa. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. B.: "Bukhara hamd print": 2023. - 384 pages.
2. Nazarov, Q. va boshqalar. Falsafa asoslari. (Oliy o'quv yurtlari uchun darslik) - T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2018. - 380 b.
3. Xaydaraliyev, X.X. "Falsafiy ta'lim asosida talabalarda vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirish parametrlari." // Inter education & global study. 2025. No. 3. 405-412.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni. - Toshkent: Adolat, 2017. - 112 b.
5. Muxtorov U. O'zbekistonda falsafiy ta'lim rivojlanishining ilmiy va konseptual xususiyatlari. Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. - T.: 2020.
6. Jahon falsafasi tarixi. (O'quv qo'llanma) / prof. M.N.Abdullayev tahriri ostida. - T., 2019.
7. G'affarova G.G. Axborotlashgan jamiyat va falsafiy tafakkur taraqqiyoti. - T.: Fan, 2014.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №9(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.